

Analysis Of The Activity Of Electronic Banking Services In The Economy

Turanova Diyora Valijon kizi.

Lecturer, Kokand University

Annotation

In this thesis, the rapid development of digital technologies in recent years has led to fundamental changes in the banking system. Electronic banking services are an integral part of the economy today, they play an important role in simplifying financial operations, increasing the speed of transactions and creating convenience for customers. This article analyzes the role of electronic banking services in the economy, the main factors determining their effectiveness, advantages and disadvantages, as well as the processes of digital transformation in the banking system of Uzbekistan. Ways to develop a cashless economy using electronic payment systems, mobile banking, online lending and other innovative services are considered. At the same time, the security issues of electronic banking services, cybersecurity threats, and the need to increase the digital literacy of users are also considered. The results of the study show that economic growth can be accelerated by ensuring the effective operation of electronic banking services.

Keywords: Electronic banking services, digital economy, financial system, mobile banking, online payment systems, innovative technologies, financial stability.

Annotatsiya

Ushbu tezisda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Elektron bank xizmatlari bugungi kunda iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, tranzaksiyalar tezligini oshirish va mijozlar uchun qulaylik yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada elektron bank xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar, afzallik va kamchiliklari, shuningdek, O'zbekiston bank tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Elektron to'lov tizimlari, mobil banking, onlayn kreditlash va boshqa innovatsion xizmatlar yordamida naqd pulsiz iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, elektron bank xizmatlarining xavfsizlik masalalari, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarurati haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari elektron bank xizmatlarining samarali faoliyatini ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Elektron bank xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy tizim, mobil banking, onlayn to'lov tizimlari, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik.

Bugungi kunda bank sohasida raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Raqamli bank xizmatlari esa bu jarayonda asosiy o'rin tutmoqda. Ular mijozlarga bank xizmatlarini yanada qulay, tez va samarali ko'rsatishga imkon beradi.

Raqamli bank xizmatlari tushunchasi: Raqamli bank xizmatlari bu bank xizmatlarini internet, mobil ilovalar, SMS, telefon orqali va boshqa raqamli platformalar orqali ko'rsatish shakli. Bu xizmatlar yordamida mijozlar ofisga borish shart emas, barcha operatsiyalar onlayn yoki elektron qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

Internet-banking: Bank mijozlari o'z hisoblarini internet orqali boshqaradi. Pul o'tkazmalari, hisoblarni tekshirish, to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

Mobil banking: Smartfonlarda ishlaydigan ilovalar yordamida bank xizmatlari. Bu qulay va har qanday vaqtda foydalanish mumkin.

SMS banking: Oddiy mobil telefonlar orqali xabar yuborish orqali bank xizmatlaridan foydalanish.

Elektron to'lov tizimlari: Elektron hamyonlar va onlayn to'lov platformalari yordamida xaridlar va pul o'tkazmalari.

Hamda ularning afzalliklari:

1. Bankga borishga hojat yo'q, vaqtni tejaydi.
2. 24/7 xizmat ko'rsatish, ya'ni istalgan vaqtda bank operatsiyalarini amalga oshirish mumkin.
3. Tezkorlik va qulaylik.
4. Xavfsizlik choralarini kuchaytirilgan (shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya).
5. Kamchiliklari:
6. Internetga bog'liq bo'lishi.
7. Texnik nosozliklar yuzaga kelishi mumkin.
8. Ba'zi odamlar uchun yangi texnologiyalarni o'rganish qiyin bo'lishi mumkin.

Internet bank — bu bank xizmatlarini internet orqali, kompyuter yoki boshqa qurilmalardan foydalanib olishdir. Mijozlar bankning maxsus saytiga kirib, o'z hisoblarini boshqarish, pul o'tkazish, to'lovlarni amalga oshirish va hisob-kitoblarni kuzatishlari mumkin.

Internet bank xizmatlarining asosiy imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Hisob-kitoblarni ko'rish va boshqarish.
2. Pul o'tkazmalari va to'lovlarni amalga oshirish.
3. Kredit va depozit ma'lumotlarini ko'rish.
4. Hisobotlarni yuklab olish va chop etish.

Mobil bank — bu smartfonlar uchun ishlab chiqilgan ilovalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatishdir. Mobil ilova yordamida mijozlar osonlik bilan pul holatini tekshirishi, to'lovlarni amalga oshirishi va boshqa ko'plab operatsiyalarni bajarishi mumkin. Masalan, mobil bank xizmatlarining afzalliklari haqida to'xtalib o'tadigon bo'lsak har qanday joydan foydalanish imkoniyati, oddiy va tezkor interfeys, bildirishnomalar orqali muhim ma'lumotlarni olish.

Humo tizimi:	Humo — O'zbekistonning milliy to'lov tizimi bo'lib, 2019 yildan faoliyat yuritmoqda.	Bu tizim MasterCard va Visa kabi xalqaro tizimlarga raqobat sifatida yaratilgan.	Humo kartalari orqali naqd pul olish, to'lov qilish, internet-do'konlarda xarid qilish mumkin.
Kartalar asosan O'zmilliybank, Agrobank kabi banklar tomonidan chiqariladi.	Humo tizimi yuqori xavfsizlik standartlariga ega, kontaktli va kontaktsiz to'lovlarni qo'llab-quvvatlaydi.	UzCard tizimi:	UzCard — O'zbekistondagi eng yirik to'lov tizimlaridan biri.
2014 yildan faoliyatda bo'lib, mamlakat banklari orasida keng tarqalgan.	UzCard kartalari ko'plab banklar tomonidan chiqariladi va butun O'zbekiston bo'ylab qabul qilinadi.	To'lovlar naqd va elektron shaklda amalga oshiriladi.	UzCard tizimi ham yuqori darajada xavfsizlikni ta'minlaydi va internetda ham ishlatiladi.

1-rasm. O'zbekistondagi asosiy elektron to'lov tizimlari¹.

Bugungi kunda naqd pul ishlatishdan ko'ra elektron to'lov tizimlari ko'proq ommalashmoqda. Bu tizimlar moliyaviy operatsiyalarni tez, qulay va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonning asosiy elektron to'lov tizimlari – Humo va UzCard – mamlakatda keng qo'llaniladi.

Humo va UzCard tizimlarining afzalliklari quyidagilar hisoblanadi: mamlakat ichida keng qabul qilinishi; tezkor va xavfsiz tranzaksiyalar; kontaktli va kontaktsiz to'lov imkoniyatlari; mobil ilovalar orqali hisobni boshqarish imkoniyati; naqd pulni kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

Elektron to'lov tizimlari kundalik hayotimizda, do'konlarda, transportda, internetda xarid qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishga, pul aylanmasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Oybek o'g, P. L. S., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 131-135.

Po'latov, S. (2025). KICHIK KORXONALARDA HISOB SIYOSATI TURLARINING TASNIFLANISHI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 57-60.

Po'latov, S. (2025). MEHMONDO 'STLIK SANOATINING HUDUDIIY RIVOJLANISHIDA SOLIQ HISOBINING TA'SIRI. University Research Base, 328-331.

Akbarovich, M. A. (2025). XUSUSIY KAPITALNING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(08), 35-40.

Elektron bank xizmatlari, to'lov tizimlari va raqamli transformatsiya natijalari haqida rasmiy ma'lumotlar.

Karimov B. "Bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari", TDIU ilmiy jurnali, 2023.

O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish tahlili.

Soliyev A. "Elektron bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi", Bank ishi jurnali, 2022.

Elektron bank xizmatlarining afzalliklari va iqtisodiy ta'siri haqida ilmiy maqola.

OECD (2023). Financial Innovation and Digital Payments.

Raqamli to'lov tizimlari va elektron moliya sohasidagi xalqaro tajriba.

Tashkent State University of Economics. Innovatsion bank texnologiyalari bo'yicha o'quv qo'llanma, 2022.